

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimamatov	
Globallashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni	442
B.S.Sobirov	
Aktyorlik faoliyatini shaklantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atinig o'mni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achilidiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida ...	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviri san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviri san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



УО'К: 793.322+37.091.33.7.03

**O'QUVCHILAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA
MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ ЗАНЯТИЙ МУЗЫКОЙ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО
МИРОВОЗЗРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ**

**THE IMPORTANCE OF MUSIC TRAINING IN SHAPING THE SPIRITUAL WORLDVIEW
OF STUDENTS**

Muydinov Jamoldin Sharobidinovich

San'atshunoslik fakulteti Musiqiy ta'lif va madaniyat kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada muallif tomonidan o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati masalasi borasida malumotlar keltirilgan. Maqolada musiqiy asarlar bilan tanishdirish jarayonida bolalarda emotsiyonal his tuyg'ularni hosis qilish yo'lli bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurularini boyitish; – bolalarni musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatlarini yordamida ijodi qobiliyatlarini shakllantirib borish; – bolalar ovozini asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish va odatlantirish; – musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badil fikr yuritishni rivojlantirish; – musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badil obrazlarni o'yin va raqs shaklida ifoda etishga o'rgatish; – musiqa mashg'ulotlarda bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishdirish, milliy cholg'u sozlarimiz ja'rligida milliy musiqiy-ritmik harakatlarni bajansiga o'rgatish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Annotatsiya

В статье представлена информация по вопросу о важности музыкального обучения в формировании духовного мировоззрения читателей автором. Обогащение их восприятия музыки путем формирования у детей эмоциональных эмоций в процессе ознакомления с музыкальными произведениями; – формирование творческих способностей детей с помощью деятельности по слушанию музыки, пению, выполнению ритмических движений под музыку, пению на детских инструментах; – воспитание у детей способности к сохранению голоса, к исполнению песен на простых, язовых, свободных, естественных и выразительных музыкальных инструментах. Петь выразительно; – разевать наслаждение музыкальными произведениями, на этой основе формировать музыкальный вкус и художественное мышление; – в процессе занятий музыкой учить выражать художественные образы в музыкальном произведении в игровой и танцевальной форме; – на занятиях музыкой приобщать детей к нашим национальным ценностям, учить выполнять национальные музыкально-ритмические движения в сопровождении наших национальных инструментальных слов, цитируется.

Abstract

the article presents information by the author on the issue of the importance of musical training in the formation of the spiritual worldview of readers. In the process of introducing musical works in the article, enrich their perception of music in children by forming emotional histuygues; – to shape their creative abilities using activities for listening to music, singing, performing rhythmic movements under music, learning children's musical instruments; – to raise children's voices, teach and habituate songs to sing simple, fluent, free, natural and expressive; – to enjoy musical works, develop musical taste and artistic thinking on this basis; – there are references to introducing our values, teaching us to perform national musical – rhythmic movements under the guidance of our National Instruments.

Kalit so'zlar: musiqa, bolalar, musiqa mashg'ulotlari, xalq o'yinlari raqlar, o'zbek xalq og'zaki ijodi, kuy o'chovi.

Ключевые слова: музыка, дети, музыкальные занятия, народные игры танцы, узбекское устное народное творчество, мера мелодии.

Key words: music, children, music training, folk game dances, Uzbek folk oral creativity, a measure of melody.

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaromi imzoladi. Hujjat sharhi «O'zbekiston 24»da efirga uzatildi.

Xususan, umumiy o'rta ta'limga muassasalarida o'quvchilariga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'limga to'g'risidagi hujjatlari (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritiladi.

Musiqa fani o'qituvchilarining milliy cholg'ularidan kamida bittasini, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo'lish majburiy hisoblanadi.

Ularga asosiy ish joyida ish haqini saqlab qolgan holda, musiqa fanidan dars o'tish va to'garak mashg'ulotlarini olib borishga ruxsat beriladi. Musiqa darslarida «Hayotimga hamrohdir cholg'u» shiori ostida «cholg'u ijrochiligi» mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi.

Maktablarni notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. 2022-2024-yillar davomida 10130 ta muktab, 323 ta bolalar musiqa muktabi, 826 ta madaniyat markazi 7 turdag'i milliy cholg'ular bilan 3 to'plamdan ta'minlanadi. Buning uchun respublika va mahalliy budjetlardan teng ulushlarda jami 205 mlrd so'm ajratiladi.

Shuningdek, o'quvchilar uchun milliy musiqa cholg'ulari, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar tashkil etish uchun 2022 yilning o'zida 92 mlrd so'm mablag' ajratiladi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan cholg'u asboblari, ovoz kuchaytirich moslamalari, texnik jihozlar, chiroqlar, maxsus liboslar O'zbekistonga olib kirimishiga 2025-yil 25-yanvargacha bojxona bojidan ozod etiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-yanvar kuni muktab ta'limi rivojlantirish bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishi muktabni bitirgan bola kamida bitta kasb bilan birga bitta milliy cholg'u asbobini chalishni bilishi shartligini aytib o'tgan edi[1].

ADABIYOT TAHЛИLI

G.Sharipova, Sh.Yakubova Maktabgacha ta'limga muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanmasida berilgan metodik tavsiyalar va musiqiy material muktabgacha ta'limga muassasalar – bolalar bog'chalarida bo'lajak musiqa rahbarlarining zamon talablari asosida musiqiy mashg'ulotlarni olib borishiga qaratilgan. Qo'llanma o'quvchilarni ilmiy, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar majmuasi bilan tanishtirib, ularda uslubiy ko'nikma hamda malakalarni tarkib toptirishda yaqindan yordam beradi[2]. Nafisa Yusupova musiqa savodi, metodikasi va ritmika O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi tomonidan pedagogika oliy o'quv yurtlari hamda kollejlari uchun o'quv qo'llanmasida ommaviy mashg'ulotlarning rejasи, ularning o'tkazilish tartibi, nazariy bilimlar bayoni, iqtisodiy topshiriqlar, notalari hamda foydalanish uchun qo'shimcha materiallar ham berilgan. Namunaviy dastur asosida tuzilgan ushbu qo'llanmadan pedagogika oliy o'quv yurtlari hamda kollejlarning o'qituvchilari va talabalari keng foydalanishlari mumkin[3]. Dildora Soipova Musiqa O'qitish Nazariyasi va Metodikasi o'quv qo'llanmasida musiqa mashg'ulotlarni, darslarini tashkil etish masalalari, musiqa o'qitishning nazariy asoslari, xorijiy mamlakatlardagi musiqa o'qitish tizimi, sinfdan tashqari musiqiy tarbiyani tashkil etish shakl va yo'llari o'z ifodasini topgan. Qo'llanma «Musiqa ta'limga yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda «Musiqa madaniyati» o'quv fani o'qituvchilari, muktabgacha ta'limga muassasalaridagi musiqa rahbarlari uchun mo'ljallangan[4].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'limga muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi bog'cha yoshidan boshlab bolalarning dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didini o'stirib, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unda hayot o'z aksini topishini anglatishdir. Shuni qayd etish lozimki, musiqa mashg'ulotlari oldiga qo'yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o'stirib borish lozim. Kichkintoylarning musiqiy uquv va qibiliyatlarini quyidagi faoliyatlaridan iborat: – musiqiy uquvi (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyati); – tembr uquvi (musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilish); – ritm tuyg'usi (musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab, his etish va ifodalash). Bolalarning musiqiy qobiliyatlarini musiqiy mashg'ulotlarning barcha elementlarini amalga oshirish jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi. Bolalar bog'chalarida olib boriladigan musiqa ta'limga tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: – kichkintoylarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish; – musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsiyal histuyg'ularni hosil qilish yo'lli bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish; – bolalarni musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatlarini yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish; – bolalar ovozini asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon,

PEDAGOGIKA

erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish va odatlantirish; – musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badiiy fikr yuritishni rivojlantirish; – musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs shaklida ifoda etishga o'rgatish; – musiqa mashg'ulotlarida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg'u sozlarimiz jo'rligida milliy musiqiy ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish; – musiqa mashg'ulotlari mazmunini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan tadbirlerda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtirok etish, konsertlar tashkil etish.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy vogelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'siradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqlar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa uquv qobiliyati asosan quyidagi musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi.

Musiqa tarbiyasidagi faoliyatlardan bolalar bog'chasi uchun eng muhimi hisoblangan musiqiy-ritmik faoliyatdir. Bolalar bog'chasida bu faoliyat ertalabki badantarbiya mashqlari sifatida amalga oshiriladi. Bolalar mashqlarni havosi toza xonalarda yoki ochiq havoda o'tkaziladi. Buning ucbun bola kiyimi yengil va qulay bo'lishi kerak. Muntazam mashq bajarish bolalami elka, qorin va boshqa a'zolarini mustahkamlaydi. Oyoq uchi va tavon uchun bajariladigan mashqlar yassi oyoqlikni oldini oladi. Bundan tashqari bunday mashqlar bolalarni qon aylanish tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Musi-qiy rahbar mashg'ulot o'tkazish jarayonida bolalarga musiqa ostida harakat qilishlariga yordam beradi va ularga raqs elementlarini o'rgatib boradi. Musiqiy mashg'ulotlarni boshlashdan avval bolalarni musiqa bilan yugurish va sakrashga o'rgatish lozim. Yurish - har xil bo'ladi. Oddiy qadamlarini keng tashlash, turgan joyida tizzalarni ko'tarib, yurnshoq, cho'zilib oyoqni uchida yurish turlari mavjud. Yugurish - bu oddiy, yengil, oyoq uchida qo'lni yuqoriga ko'tarib yugurish va keng qadamlar bilan yugurish. Sakrash - bunda ikki oyoqda sakrash, oyoqni juftlab, oyoqlami almashtirib, bir oyoqni oldinga ikkinchi orqaga qilib sakrash, obruchlar orasidan arqon bilan sakrash turlari mavjud.

XULOSA

Musiqa mashg'ulotlar haftasiga ikki marta o'tkaziladi. Unda guruhning barcha bolalari ishtirok etadi. Musiqa mashg'ulotlari – musiqa tinglash, qo'shiq o'rgatish, musiqiy – ritmik harakatlar bajarish, raqsga tushish, musiqiy – didaktik o'yinlar, bolalar cholg'u asboblarida chalishga o'rgatish va musiqaga oid ma'lumotlarni qamrab oladi. Har bir mashg'ulotdan mashg'ulotga sayin bolalarga musiqaviy ta'lim-tarbiya berishning qaysidir vazifasi hal etib boriladi. Musiqa rahbari ushbu ishda rahbarlik qiladi, to'g'ri yo'l ko'rsatib, maslahat va tavsiyalarini berib boradi. Bolalarni bilim va malakalariga qo'yiladigan talablar har bir guruh uchun faoliyat turiga qarab tuziladi.

Bunday mashg'ulotlarning qiyinligi shundaki, bolalarning diqqatini bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chirish kerak bo'ladi. Shu ketma – ketlikni reja asosida amalga oshirish murakkabdir. Chunki bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olsak, ular bugun o'rgangan asarlarini keyingi safar unutishlari mumkin. Zamonaviy pedagogika ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqa rahbarining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va sanhat sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarori.

6. G.M.SHARIPOVA, SH.A.YAKUBOVA. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASI. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma), Uchinchi nashri, Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2017.

7. NAFISA YUSUPOVA MUSIQA SAVODI, METODIKASI VA RITMIKA O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan pedagogika oliy o'quv yurtlari hamda kollejlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Toshkent: «Musiqa» nashriyoti, 2010.

8. Dildora Soipova. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi (O'quv qo'llanma), Toshkent, 2009.